



“O‘ZTRANSGAZ” AKSIYADORLIK JAMIYATI
BUYRUG‘I

2025 y. 15 " dekabr

200 - sonli

**“O‘ztransgaz” AJda ISO 37001:2016 va O‘z DSt 37001:2019 talablariga muvofiq
korrupsiyaga qarshi menejment tizimini joriy etish bo‘yicha hujjatlar
majmuasini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son qarori, 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son qarori, shuningdek 2025-yil 21-apreldagi “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta‘minlash hamda faoliyat samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-147-son qarori talablaridan kelib chiqib, Jamiyatning Komplayens-nazorat bo‘limi faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlarni yangi tahrirda tasdiqlash maqsadida:

BUYURAMAN:

1. “O‘ztransgaz” AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosat 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Komplayens-nazorat bo‘limining faoliyati tartibini belgilab beruvchi Nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. “O‘ztransgaz” AJ va uning tarkibiy tuzilmalari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash hamda baholash bo‘yicha Uslubiyot 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. “O‘ztransgaz” AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi menejment tizimining ichki auditini o‘tkazish Tartibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
5. “O‘ztransgaz” AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish tartibini belgilovchi Nizom 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
6. “O‘ztransgaz” AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi menejment tizimini joriy etish bo‘yicha Qo‘llanma 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. "O'ztransgaz" AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida kontragentlarni tekshirish tartibini belgilovchi Yo'riqnoma 7-ildovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. "O'ztransgaz" AJ va uning tarkibiy tuzilmalariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarning halollik va ishonchlilik bo'yicha tekshirilish tartibini belgilovchi Yo'riqnoma 8-ildovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. "O'ztransgaz" AJ va uning tarkibiy tuzilmalari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro uchrashuvlar va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'alarning qiymati hamda ularni tasarruf etish tartibini belgilovchi Nizom 9-ildovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. "O'ztransgaz" AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari yoki odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tartibini belgilovchi Reglament 10-ildovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. "O'ztransgaz" AJ va uning tarkibiy tuzilmalariga aloqa kanallari orqali kelib tushgan korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risidagi xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish tartibini belgilovchi Reglament 11-ildovaga muvofiq tasdiqlansin.

12. "O'ztransgaz" AJ va uning tarkibiy tuzilmalari faoliyatida korrupsiyaga qarshi menejment tizimining nomuvofiqliklar va tuzatuvchi choralarini boshqarish Tartibi 12-ildovaga muvofiq tasdiqlansin.

13. Jamiyatning Komplayens-nazorat bo'limi hamda "MS KONSULT" MCHJ hamkorligida ishlab chiqilgan jami 12 ta normativ-huquqiy hujjatlar to'plami rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

14. Jamiyatda joriy etilgan korrupsiyaga qarshi tizim samaradorligini oshirish hamda korrupsiyaga oid xavflarni bartaraf etish orqali ISO 37001:2016 va O'z DSt 37001:2019 talablariga muvofiqlik sertifikatlarini qo'lga kiritishni ta'minlash maqsadida, Jamiyatning Komplayens-nazorat bo'limi (Ismatov) boshchiligida barcha departamentlar, mustaqil bo'limlar va tarkibiy tuzilma rahbarlari ishlarni jadallashtirsin.

15. Jamiyatning 2021-yil 26-oktyabrdagi 173-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

16. Devonxona (Kamilova) mazkur buyruqni Jamiyatning barcha departamentlari, mustaqil bo'limlari hamda tarkibiy tuzilmalariga yetkazilishini ta'minlasin.

17. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi v.b.



A. Isakov